



“TURBO” maxsus aksiyasini o‘tkazish shartlari

1. Ushbu shartlar “TURBO tezlik” maxsus aksiyasini (keyingi o‘rinlarda - Aksiya) o‘tkazish va unda ishtirok etish tartibini belgilaydi.
2. Aksiyani o‘tkazish muddati – 2024-yil 14-martdan 14-aprelgacha.
3. Aksiyada faol holatda bo‘lgan “O‘zbektelekom” AKning Internetga keng polosali ulanish xizmatlaridan ma’lum tarif rejalarida foydalanuvchi abonentlar - jismoniy shaxslar ishtirok etishi mumkin.
4. Aksiya doirasida abonentlarga quyidagi shartlarda qo‘shimcha xizmatini faollashtirish imkoniyati beriladi:

Qo‘shimcha xizmat nomi	Faollashtirish imkoniyati mavjud bo‘lgan ulanish texnologiyasi	Internet tarmog‘iga, «Uz-IX» va «TAS-IX» tarmoqlariga ulanish tezligi *	Faollashtirilgan qo‘shimcha xizmatning amal qilish muddati	Har bir abonent tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan faollashtirish ar soni	Qo‘shimcha xizmatni faollashtirish narxi (so‘m)	Xizmatni faollashtirish mumkin bo‘lgan tarif rejalarini
TURBO tezlik	GPON	500 Mbit/s	30 kun	1	10 000	FOYDALI - 1, FOYDALI - 1+, FOYDALI - 2, FOYDALI - 2+, FOYDALI - 3, FOYDALI - 3+, HAMMASI BIRGA 1, HAMMASI BIRGA 2, HAMMASI BIRGA 3, IJTIMOY, MAKTAB, TALABA, TEZNET 2+, TEZNET 3+, TEZNET 4+, TEZNET 6+, TEZNET 9+, UNLIM 4, UNLIM 6, UNLIM 10, UNLIM 15, UNLIM 20, UNLIM 20 Premium, UNLIM 30, UNLIM 40, UNLIM 60, UNLIM 100, UNLIM 300, YANGI 1, YANGI 1+, YANGI 2, YANGI 2+, YANGI 3, YANGI 4, YANGI 5

* Ma’lumotlar uzatish tarmog‘i, jumladan, Internet tarmog‘iga kirishning haqiqiy tezligi ta’minlanishi abonent tomonidagi uskunalarga, shuningdek, “O‘zbektelekom” AKga tegishli bo‘lmagan va boshqa tarmoqlar hamda serverlar egalari tomonidan o‘rnatilgan tarmoqlar va serverlarning o‘tkazuvchanlik qobiliyatiga bog‘liq.

5. Qo‘shimcha xizmatni faollashtirish Abonent tomonidan mustaqil ravishda Shaxsiy kabinet yoki MyUZTELECOM mobil ilovasi orqali amalga oshiriladi.

6. Agar qo‘shimcha xizmat faollashtilgan bo‘lsa va uning amal qilish muddati Internet xizmatlari uchun abonent to‘lovi bo‘yicha to‘langan muddatdan oshib ketsa, qo‘shimcha xizmat ko‘rsatish to‘lov amalga oshirilgunga qadar to‘xtatiladi.

Masalan: abonent tomonidan Internet xizmatlari uchun abonent to‘lovi bo‘yicha to‘langan hisob-kitob davri 15-martdan 15-aprelgacha, abonent keyingi hisob-kitob davri uchun abonent to‘lovini o‘z vaqtida to‘lamagan, 15-aprelda esa xizmatlar o‘chirildi, 18-aprelda to‘lov amalga oshirilganidan so‘ng xizmatlar yoqildi. Bunda, agar qo‘shimcha xizmatga ulanish 10 aprel kuni soat 15:00 da amalga oshirilgan bo‘lsa, u holda xizmatdan foydalanish 10 may soat 15:00 gacha mavjud bo‘ladi, biroq 15-apreldan 18-aprelgacha bo‘lgan davrda qo‘shimcha xizmatdan foydalanish cheklanadi hamda bu muddat uchun qayta hisoblash amalga oshirilmaydi.

7. 500 Mbit/s Internetga kirish tezligini ta‘minlash uchun abonent tomonidagi foydalanuvchi qurilmalari ham belgilangan tezlikka mo‘ljallangan bo‘lishi kerak. Qurilmalar 6-toifali kabel orqali ulangan bo‘lishi, simsiz ulanishda esa 5 gigagertsli chastota diapazonida ishlaydigan Wi-Fi routerdan foydalanish kerak.

8. Qo‘shimcha xizmatning amal qilish muddati tugaganidan so‘ng, Internet, Uz-IX va TAS-IX tarmoqlariga kirish tezligi amaldagi tarif rejasi shartlariga muvofiq tiklanadi.

9. Agar qo‘shimcha xizmat yoqilgan bo‘lsa, ushbu xizmat amal qilish muddati tugagunga qadar tarif rejasini o‘zgartirish tavsiya etilmaydi. Aks holda, tarif rejasini o‘zgartirgandan so‘ng, qo‘shimcha xizmat to‘xtatiladi.

10. Qo‘shimcha xizmat faollashtirilgan bo‘lsa, qayta faollashtirishni amalga oshirish mumkin bo‘lmaydi.

11. Kompaniya tegishli ma‘lumotlarni Internet tarmog‘idagi www.uztelecom.uz rasmiy veb-saytida va boshqa aloqa vositalarida joylashtirish orqali Aksiya o‘tkazilishi va uning shartlari to‘g‘risida xabardor qiladi.

12. “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi Aksiya shartlarini o‘zgartirishga haqli va ushbu haqda tegishli ma‘lumotlar www.uztelecom.uz rasmiy veb-saytida joylashtiriladi yoki boshqa aloqa vositalari orqali xabardor qilinadi. Ishtirokchilar yuqorida keltirilgan sayt orqali kiritilgan o‘zgarishlarni mustaqil ravishda tekshirib borishlari mumkin.